

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINING TARKIBIY KOMPONENTLARI VA ULARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОД- ГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И ИХ ВЗАИМОСВЯЗЬ

STRUCTURAL COMPONENTS OF THE PEDAGOGICAL READINESS OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS AND THEIR INTERRELATIONSHIP

MUXAMADALIYEVA MADINABONU BOHODIRJON QIZI
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik tayyorgarligining motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy, kommunikativ hamda refleksiv komponentlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu tarkibiy qismlarning o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlanishi bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish hamda kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik tayyorgarlik, boshlang‘ich ta’lim, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetensiya, motivatsiya, refleksiya, pedagogik faoliyat, bo‘lajak o‘qituvchi.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются мотивационно-ценностный, когнитивный, деятельностно-практический, коммуникативный и рефлексивный компоненты педагогической подготовки будущих учителей начальных классов. Взаимосвязанное развитие этих компонентов обосновано как ключевой фактор формирования профессиональной компетентности будущих специалистов и повышения эффективности их дальнейшей педагогической деятельности.

Ключевые слова: педагогическая подготовка, начальное образование, профессиональная компетентность, педагогическая компетенция, мотивация, рефлексия, педагогическая деятельность, будущий учитель.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the motivational-value, cognitive, activity-practical, communicative, and reflexive components of future primary school teachers' pedagogical preparation. The integrated development of these structural components is substantiated as a crucial factor in building the professional competence of future specialists and enhancing the overall effectiveness of their educational activity.

Keywords: pedagogical preparation, primary education, professional competence, pedagogical competence, motivation, reflection, pedagogical activity, future teacher.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimining oldiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ta'lim sifati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu sifatni ta'minlashda pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagoglarning kasbiy mahorati va pedagogik tayyorgarligi o'quvchilarningkeyingita'limbosqichlaridagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish va pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yangi O'zbekistonni barpo etishda eng katta tayanchimiz – bu bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual salohiyati yuksak yoshlarimizdir"¹. Mazkur fikr pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va pedagogik tayyorgarligini zamon talablari asosida tashkil etish zaruratini yaqqol namoyon etadi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida, bilim olishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishda, mustaqil fikrlash va ijtimoiylashuv ko'nikmalarini tarkib toptirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki pedagogik, psixologik va metodik jihatdan ham yuqori tayyorgarlikka ega bo'lishi talab etiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik tayyorgarlik murakkab va ko'p qirrali pedagogik hodisa bo'lib, uning mazmuni pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, qadriyatlar, motivlar va shaxsiy sifatlar majmuasini qamrab oladi. Pedagogik tayyorgarlikning mazmuni va tarkibiy tuzilishi masalalari V.A. Slastenin, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, I.A. Zimnyaya, O. Musurmonova va boshqa olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan².

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini shakllantirish bugungi kunda pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki ta'lim sifatini oshirish ko'p jihatdan pedagogning kasbiy tayyorgarligi darajasi bilan belgilanadi. Shu bois pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy komponentlarini aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-pedagogik tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish va ilmiy kuzatish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi hamda pedagogik faoliyatning tizimli tahlili tashkil etdi.

Tahlillar natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligi quyidagi tarkibiy komponentlardan iborat ekanligi aniqlandi:

1. motivatsion-qadriyatli komponent;
2. kognitiv komponent;
3. faoliyatli-amaliy komponent;
4. kommunikativ komponent;

1 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 214.

2 Slastenin V.A. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2013. – B. 122–128.

5. refleksiv komponent.

Mazkur komponentlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, pedagogik faoliyat samaradorligini ta‘minlaydigan yagona tizimni tashkil etadi.

Pedagogik tayyorgarlikning birinchi va eng muhim tarkibiy qismi motivatsion-qadriyatli komponent hisoblanadi. Ushbu komponent bo‘ljak o‘qituvchining pedagogik kasbga bo‘lgan qiziqishi, kasbiy faoliyatga ijobiy munosabati, pedagogik qadriyatlarni anglash darajasi va kasbiy motivlarini ifodalaydi. Pedagogik faoliyatga nisbatan shakllangan ijobiy motivatsiya bo‘ljak o‘qituvchining o‘z ustida ishlashiga, bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda rivojlantirib borishiga xizmat qiladi.

Motivatsion-qadriyatli komponent pedagogik tayyorgarlikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi. Kasbiy motivatsiyasi yuqori bo‘lgan talabalar pedagogik faoliyatda yuqori natijalarga erishishga intiladilar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishga moyillik bildiradilar va o‘z kasbiy faoliyatiga mas‘uliyat bilan yondashadilar³. Ushbu komponent bo‘ljak o‘qituvchining kasbiy o‘zligini anglashida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik tayyorgarlikning ikkinchi tarkibiy qismi kognitiv komponent bo‘lib, u pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan nazariy bilimlar tizimini qamrab oladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi pedagogika, psixologiya, didaktika, tarbiya nazariyasi, yosh psixologiyasi va fanlarni o‘qitish metodikasiga oid puxta bilimlarga ega bo‘lishi zarur.

Kognitiv komponentning rivojlanishi

pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri tahlil qilish, ta‘lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Nazariy bilimlar pedagogik faoliyatning ilmiy asosini tashkil etadi va amaliy faoliyatning samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Shu sababli pedagogik tayyorgarlik jarayonida nazariy bilimlarni chuqur egallash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Pedagogik tayyorgarlikning uchinchi komponenti faoliyatli-amaliy komponentdir. Mazkur komponent pedagogik bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakalarini o‘z ichiga oladi. Bo‘ljak o‘qituvchi darsni rejalashtirish, ta‘lim jarayonini tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish, o‘quvchilar bilimini baholash, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kabi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.

Faoliyatli-amaliy komponentning shakllanishida pedagogik amaliyot muhim o‘rin tutadi. Talabalar amaliyot davomida nazariy bilimlarini real pedagogik vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi. N.V. Kuzmina pedagogik mahoratning shakllanishi pedagogik faoliyatni amaliy bajarish jarayonida yuzaga kelishini ta‘kidlaydi⁴.

Pedagogik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismlaridan yana biri kommunikativ komponent hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining muloqot madaniyatiga bog‘liq. Kommunikativ komponent o‘quvchilar, otalar, hamkasblar va ta‘lim muassasasi rahbariyati bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini qamrab oladi.

3 Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – Moskva: Znanie, 1996. – B. 67–74.

4 Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatela i mastera proizvodstvennogo obucheniya. – Moskva: Vysshaya shkola, 1990. – B. 45–52.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kichik yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashi sababli uning nutqi ravon, tushunarli va ta'sirchan bo'lishi zarur. Shuningdek, pedagogik muloqot jarayonida empatiya, bag'rikenglik, pedagogik takt va hamkorlik tamoyillariga amal qilishi talab etiladi. Kommunikativ kompetensiyalarning rivojlanganligi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilar shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik tayyorgarlikning zamonaviy modelida refleksiv komponent alohida ahamiyatga ega. Refleksiya o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi, baholashi va takomillashtirishi bilan bog'liq jarayondir. Refleksiv komponent o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga, o'z faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlashiga va ularni bartaraf etish yo'llarini izlashiga yordam beradi.

Refleksiv kompetensiyalarga ega bo'lgan pedagog o'z faoliyatini muntazam ravishda tahlil qiladi, o'z ustida ishlaydi va pedagogik mahoratini oshirib boradi. Zamonaviy ta'lim tizimida refleksiya uzluksiz kasbiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi⁵.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik tayyorgarlikning yuqorida qayd etilgan komponentlari alohida-alohida mavjud bo'lmaydi. Ular o'zaro bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi va yagona tizimni tashkil etadi. Motivatsion-qadriyatli komponent bo'lajak o'qituvchini bilim olish va kasbiy rivojlanishga undaydi. Kognitiv komponent kasbiy faoliyat uchun zarur bilimlar bazasini yaratadi. Faoliyatli-amaliy komponent ushbu bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni ta'minlaydi. Kommunikativ komponent

pedagogik faoliyat subyektlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni tashkil etadi. Refleksiv komponent esa faoliyat natijalarini tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi.

Mazkur komponentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik pedagogik tayyorgarlikning yaxlitligini ta'minlaydi. Komponentlardan birining yetarli darajada rivojlanmaganligi umumiy kasbiy tayyorgarlik samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida barcha komponentlarni kompleks rivojlantirish zarur.

Ilmiy manbalar va amaliy tajribalar tahlili bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini tizimli tashkil etish zarurligini ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagogdan nafaqat nazariy bilimlar, balki ijodkorlik, innovatsion fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati va refleksiv kompetensiyalar ham talab qilinmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik tayyorgarlik tizimi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda nazariy tayyorgarlik, amaliy faoliyat va shaxsiy rivojlanishning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan pedagoglar o'quvchilarning keyingi rivojlanish bosqichlari uchun asos yaratishi sababli ularning pedagogik tayyorgarligi alohida e'tibor talab qiladi. Shu nuqtai nazardan pedagogik oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, talabalarni faol pedagogik amaliyotga jalb etish va refleksiv faoliyatni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligi

5 Musurmonova O. Pedagogik kompetentlik va kasbiy mahorat asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 93–101.

murakkab, ko'p komponentli va integrativ tizim hisoblanadi. Uning tarkibiga motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy, kommunikativ va refleksiv komponentlar kiradi. Mazkur komponentlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi va pedagogik faoliyatning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari pedagogik tayyorgarlikni shakllantirish jarayonida

barcha komponentlarni kompleks rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois pedagogik oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va refleksiv faoliyatga asoslangan tayyorgarlik tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Musurmonova O. Pedagogik kompetentlik va kasbiy mahorat asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. – 176 b.
3. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. – М.: Академия, 2013. – 496 с.
4. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Высшая школа, 1990. – 119 с.
5. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996. – 308 с.
6. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с.
7. Xasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Xasanboyeva O. Pedagogika. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 512 b.
8. Ochilov M. O'qituvchi ma'naviyati va kasbiy madaniyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 224 b.
9. Nishonova S., Hasanboyev J., Usmonov S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 432 b.
10. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Vohidova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019. – 384 b.
11. Quronov M. Komil inson tarbiyasi va zamonaviy pedagogika. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – 256 b.
12. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 416 b.